

114/T3-SONLI HISOB SHARTNOMASI

Toshkent sh.

«17» yanvar 2022 y.

Bundan buyon matnda «**YETKAZIB BERUVCHI**» deb ataluvchi «**ABK-MEDICAL**» MCHJ nomidan nizom asosida harakat qiluvchi Tijorat direktori Djalalov B.M bir tomondan hamda bundan buyon matnda «**XARIDOR**» deb ataluvchi П.Б.М.М nomidan Кежоев asosida harakat qiluvchi Тулехов А.Б. ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida shartnoma tuzdilar:

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1 **Yetkazib beruvchi** mahsulotni (keyingi o'rinlarda "Mahsulot" deb yuritiladi) tayyorlab, yetkazib berish majburiyatini oladi, **Xaridor** esa mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Mahsulot assortimenti va bahosiga binoan Mahsulotni qabul qilib olib haqini to'lash majburiyatini oladi.

1.2 MAHSULOT (ISH VA XIZMAT)LAR RO'YXATI

№	Mahsulot (ish, xizmat) nomi	O'lchov birligi	Miqdor i	Narxi	QQS siz yetkazib berish qiymati	QQS		QQS qo'shilgan yetkazib berish qiymati
						Miqdor	Bahosi	
1	ДС-1 1л (концентрат)	dona	10	250 260,00	2 502 600,00	15%	375 390,00	2 877 990,00
2	Экстра Дез плюс 1л (концентрат)	dona	10	191 300,00	1 913 000,00	15%	286 950,00	2 199 950,00
3	Экстрадин 1л (концентрат НОВЫЙ)	dona	10	161 440,00	1 614 400,00	15%	242 160,00	1 856 560,00
Всего к оплате								6 934 500,00

1.3 Mahsulot sifati O'zbekiston Respublikasi Davlat standartlari yoki boshqa me'yoriy hujjatlariga javob berishi shart.

2. SHARTNOMA UMUMIY BAHOSI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

2.1 Mazkur shartnomaning QQS qo'shilgan umumiy bahosi **6 934 500 (Olti million to'qqiz yuz o'ttiz to'rt ming besh yuz)** so'mni tashkil etadi.

2.2 Mazkur shartnoma bo'yicha yetkazib berilayotgan mahsulot uchun to'lov shartnoma tuzilgandan 5 bank kuni mobaynida maxsulot xaqini oldindan 100% sharti bilan amalga oshiriladi.

3. YETKAZIB BERISH TARTIBI

3.1 Mazkur shartnoma bo'yicha mahsulot yetkazib berilishi yetkazib beruvchi hisob raqamiga pul tushgandan so'ng 10 bank kuni mobaynida amalga oshiriladi.

3.2 Yetkazib berish shartlari – agar Xaridor tomonidan sotib olinayotgan mahsulot miqdori 500 000 so'mdan oshsa yetkazib berish xizmati mavjud, agarda oshmasa o'zining kuchi va hisobidan Mahsulotni Yetkazib beruvchining omboridan olib ketadi.

3.3 Mahsulotni qabul qilish vaqtida Xaridor Yetkazib beruvchining ishtirokida mahsulot butligi va sifatini tekshirishi shart, bundan keyin mahsulot butligi uchun javobgarlik Xaridorga o'tadi.

4. JARIMAVIY SANKSIYALAR

4.1 Mazkur shartnomaning 2.2. bandida nazarda tutilgan to'lov muddatlarni buzganlik uchun Xaridor Yetkazib beruvchiga to'lovi kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida, lekin shartnoma bahosining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.2 Yetkazib beruvchi yetkazib berish muddatlarni buzganlik uchun Xaridorga kechiktirilgan har bir kun uchun 0,5 foizi miqdorida, lekin ushbu mahsulot bahosining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.3 Mazkur shartnoma taraflari o'rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar o'zaro muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

4.4 Mazkur shartnoma bilan tartibga solinmagan masalalarda taraflar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi va 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ish tutadilar.

5. FORS-MAJOR

5.1 Taraflar engib bo'lmas kuch (tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar yoki hukumat taqiqlovchi qarorlari) oqibatida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

6. QO'SHIMCHA SHARTLAR

6.1 Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish, qo'shimcha va ilovalar ular yozma ravishda tuzilgan, shartnoma taraflari tomonidan imzolangan va muhrlangan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.

6.2 Yetkazib beruvchi Xaridor realizatsiya jarayonida yoki qabul qilingan mahsulotdan uchinchi shahs foydalanganligi natijasida Savdo va moliyaviy (to'lov, hisob-kitob, buxgalteriya va x.q) qoidalarni buzganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

6.3 Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib, ikkala nusxa ham bir xil yuridik kuchga ega va taraflarga bir nusxadan beriladi.

6.4 Mazkur shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022yil "31" dekabrgacha amal qiladi.

7. TARAFLARNING YURIDIK MANZIL VA REKVIZITLARI

Yetkazib beruvchi

«ABK-MEDICAL» MChJ

Toshkent sh., Mirzo-Ulug'bek tumani,

Feruza mavzesi, 7 uy, 30 xonadon.

Tel: (71) 260-43-60, Faks: (71) 260-43-57

h/r: 20208000300847927001

ATIB "Ipoteka bank" Amaliyot boshqarmasi

Toshkent shahar filiali.

MFO: 00419

STIR: 305341119


OKED: 20200

NDS maxsus kodi 326020048285

Tijorat direktori



Xaridor



ХУКУҚШУНОС ХУЛОСАСИ

« 17 » 01 2022 йил 14/13-сонли
шартноманинг ҳуқуқий таҳлили.

Тошкент ш. « 17 » 01 2022 йил.

Мен, Республика болалар ортопедия маркази
ҳуқуқшуноси Азимов Нодирбек Азадович, Республика
Республика болалар ортопедия маркази ва
"JDK-MEDICAL" LLC. ўртасида
« 17 » 01 2022 йилдаги тузилган шартномани
ўрганиб чиқдим.

Ушбу шартномани тузилишини ҳуқуқий таҳлил қилиш
жарёнида қуйдагилар аниқланди:

- шартномада томонлар ўртасидаги ўзаро муносабатлар
Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси ва Ўзбекистон
Республикасининг «Хўжалик юритувчи субъектлар
фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида»ги
қонунига асосан белгилаб берилган;
- шартнома шартлари амалдаги қонун ҳужжатлари
талабларига мос;
- шартнома бўйича тарафларнинг жавобгарлиги меъёри
ва низоларни ҳал этиш тартиби қонун ҳужжатлари талабларига
мос.

ХУЛОСА:

Ушбу шартноманинг мазмуни Ўзбекистон
Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатлари талабларига
жавоб беради.

Республика болалар ортопедия
маркази ҳуқуқшуноси


Н.А.Азимов
(имзо)